Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi.....	646
<i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	650
<i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>	
Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli.....	654
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Yengil dizatriyalı bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari.....	658
<i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>	
Ochilmagan bo'z qalblar hazor.....	662
<i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>	



Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....	665
Abdullayeva Charos Farkhodovna	
Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils	670
Ataullayev Fazliddin	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligiga ta'siri	674
Bovanova Umida Abdurahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli	679
Bovanova Umida Abdurahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati	683
Eshmurodova Shirin Oybekovna	
Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari	686
Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li	
Talabalarda affilativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
Omonova Nilufar Omon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya párin oqítw arqalı oqíwshlardín kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoira Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
Абидова М. И., Абидова Д. М.	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
Амитова Майисия Рахмателлаевна	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
Гилязиева Насиба Михайловна	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
Ислямова Сония Юнусовна	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
У. Ш. Салимов	



TALABALARDA AFFILIATIV MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA KOMPONENTLARI

Omonova Nilufar Omon qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining
Pedagogika va texnologik ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada motivatsiyaning tarkibiga kiruvchi affiliasiyani talabalarda rivojlantirishning zaruriyati asoslangan. Oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarda affiliativ motivatsiyani hozirgi zamon ilm-fani yutuqlari bilan uyg'unlashtirgan holda amaliyotga qo'llashning afzalligi o'rganiladi. Bugun talabalar birgalikda harakat qilishlari uchun faol muloqotda bo'lishlari, bir-birlarining xarakter xususiyatini tushunishi zarurdir. Buning uchun esa talabalar o'zaro muloqotni to'g'ri tashkil etishi va munosabat o'rnatish jarayonida bir-birlariga moslasha olishlari ahamiyatlidir. Chunki bu har bir talabaga dars davomida o'z o'quv faoliyatini samarali olib borish imkonini beradi.

Shuningdek, maqolada birgalikda vazifalarni to'g'ri va teng taqsimlanishi, qolaversa, ularning kichik guruhlarda ish olib borishida muloqotning turli usullaridan unumli foydalanish shartlari izohlangan. Shunga ko'ra, talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirish omillarini olib kirishning ahamiyatlilik darajasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: talaba, affiliasiya, motivatsiya, munosabat, birlashish, ehtiyoj, hamkorlik, inson, muloqot, motiv, shaxs, rivojlantirish.

Abstract: This article substantiates the necessity of developing affiliation as a structural component of motivation among students. The advantages of applying affiliative motivation in higher education practice, integrated with contemporary scientific achievements, are examined. In the modern educational context, effective collaborative activity requires students to engage in active communication and to understand each other's individual psychological characteristics. Therefore, the ability to organize interpersonal interaction appropriately and to adapt during the process of relationship-building becomes particularly significant. This, in turn, enables each student to carry out academic activities more effectively during the learning process.

The article also explains the conditions for the proper and equitable distribution of joint tasks, as well as the effective use of various communication methods in small-group work. Based on scientific analysis, the importance of introducing factors that promote the development of affiliative motivation among students is substantiated.

Key words: student, affiliation, motivation, interpersonal relations, unity, need, cooperation, individual, communication, motive, development.

Аннотация: В данной статье обоснована необходимость развития аффилиации как структурного компонента мотивации у студентов. Исследуются преимущества практического применения аффилиативной мотивации у студентов высших учебных заведений в интеграции с современными достижениями науки. В современных условиях для эффективной совместной деятельности студентам необходимо активно взаимодействовать, понимать индивидуально-психологические особенности друг друга. В этой связи особое значение приобретает умение правильно организовывать межличностное общение и адаптироваться в процессе установления взаимоотношений. Это, в свою очередь, способствует повышению эффективности учебной деятельности каждого студента в ходе образовательного процесса.

В статье также раскрываются условия рационального и равномерного распределения совместных заданий, а также эффективного использования различных коммуникативных методов при работе в малых группах. На основе проведенного анализа научно обоснована значимость внедрения факторов, способствующих развитию аффилиативной мотивации у студентов.

Ключевые слова: студент, аффилиация, мотивация, взаимоотношения, объединение, потребность, сотрудничество, личность, общение, мотив, развитие.

KIRISH

Shiddat bilan rivojlanayotgan davlatimizda yoshlarning bilim saviyasi va dunyoqarashining o'sishi eng muhim ustuvor vazifa hisoblanadi. Chunki yoshlar har bir davlatning kelajagini belgilab beruvchi asosiy kuchdir.

Shu boisdan ham Prezidentimiz: "Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi", - deya aytgan e'tiroflari O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishi ekanligini yana bir karra isbotlaydi.¹

Ta'lim inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, qobiliyatini yuzaga chiqarish, ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning bir-biriga payvasta bo'lib qo'shilishiga yordam beradi. Shunday ekan, har bir ilm dargohi rivojlantirish imkoniyatini yanada oshirish, ta'lim oluvchilarning bilim olib, kasb egallashi uchun o'qib-o'rganishga moyil yoshlarning bir-birlari bilan hamkorlikda erkin munosabat o'rnatishlari, doimiy ishonchli muloqot qilishlariga ko'maklashishi zarur.

Chunki har bir inson fikrlashi va bu fikrlarni hayotiga tatbiq eta olishi kerak. Affiliatsiya talabalarga mavjud fikrlarini muloqot orqali amalga oshirishga, fikrlarini o'rtoqlashishga, do'stlar orttirib birgalikda harakat qilishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi motivatsiyadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR ADABIYOTLAR SHARHI

Affiliativ motivatsiya so'zining ma'nosi fransuz tilidagi "affiliation" - "birlashish", ingliz tilidagi "to affiliate" so'zidan olingan bo'lib, birlashtirmoq, birlashmoq ma'nosini anglatadi, ya'ni insonning boshqa insonlar davrasida bo'lishga intilish hissi tushuniladi.²

E.H. Shagalovanning chet el so'zlarini talqin etuvchi eng yangi lug'at ma'lumotlarida keltirilishicha, o'rta asrlarda "affiliatus", ya'ni lotincha "filius" - "o'g'il" ma'nosini bildirib, ushbu tilda "bolani boqib olish" so'zlaridan kelib chiqqan.³

Ta'rifga ko'ra, subyektning salohiyati xavfli stress holatiga tushishi bilan affiliativ motivatsiyaga intilish ortib boradi. Tanish odamlar o'rtasidagi yaqin munosabatlar xavotirlanish darajasining pasayishiga olib keladi va shu bilan birga ham fiziologik, ham psixologik stressning oldini oladi yoki uni yumshatadi.

Affiliativ motivatsiyaning susayishi esa yolg'izlik, begonalashuv hissinı keltirib chiqaradi hamda aldanish, rejalar barbod bo'lishi (frustratsiya) holatlariga olib keladi.⁴

G. Myurrey affiliativ motivatsiyani shunday ta'riflaydi: affiliativ motivatsiya - bu pedagogik-psixologik hodi-sadir. Uning e'tiroficha, affiliativ motivatsiya "do'st orttirish va ularga bog'lanib qolish"dir. Odamlardan ko'pchilik hollarda xursand bo'lish va ular bilan bir xil muhitda yashashga intilishdir. Guruhlarga birlashish, sevimli subyektlar bilan muloqotda va hamkorlikda bo'lish kabi holatlarda ro'yobga chiqadi. Ya'ni odamlar bilan yaqin munosabatlarni qurish va bu munosabatlarni keyinchalik ham davom etadigan tarzda amalga oshirishdir.

Masalan, "yordam ko'rsatish yoki ulardan yordam olish", "yaxshi taassurot qoldirish" yoki "boshqalar ustidan hukmronlik qilish" kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Affiliatsiya (kontakt, muloqot) deganda birgalikdagi ma'lum bir guruh tushuniladi. Uning asosiy mazmuni boshqa odamlar (tanish yoki notanish) bilan muloqot jarayonida yuzaga chiqadi va bu qo'llab-quvvatlash har ikki tomonga bir-biridan ijobiy his-tuyg'u beradi, har ikkala tarafni mazmunan boyitadi.⁵

G. Myurrey esa odamlar o'rtasidagi aloqadorlik ehtiyojini to'rtta turga ajratadi:

1. Affiliativ ehtiyoj (birlashish ehtiyoji).
2. Rad etish ehtiyoji (obyektlarni inkor etish, chetlashish).
3. Rahnamolik ehtiyoji (himoyalash, boshchilik qilish).
4. Qo'llab-quvvatlash ehtiyoji (yordam va himoya izlash).^[4]

1 Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. Т.: "Ўзбекистон" 2017 йил, -489б.
2 Шапарь.В.Б. Новейший психологический словарь/ В.Б.Шапарь, В.Э.Россоха, О.В. Шапарь; под общ.ред. О.В. Шапаря. – Изд.3-е-Ростов нД.: Феникс, 2007.-806 с., б, 43
3 Шагалова Е.Х. Словарь новейший иностранных слов (конец XX начало XXI вв): боле 3000 слов и словосочетаний. – М.: АСТ: Астрельб 2010.-943 с.
4 Шапарь.В.Б. Новейший психологический словарь/ В.Б.Шапарь, В.Э.Россоха, О.В. Шапарь; под общ.ред. О.В. Шапаря. – Изд.3-е-Ростов нД.: Феникс, 2007.-806 с., б, 43
5 Хекхаузен Х. Мотивация и деятельности. Б 2-х т.- М.: Наука,1986.-Т.2.-569-580 с. б 289



TAHLIL VA NATIJALAR

Affiliativ motivatsiyani tarkibiy qismlarga ajratish tajribasi A. Megrabyan tomonidan olib borilgan ko'plab izlanishlar natijasida kiritilgan bo'lib, muallif ushbu motivatsiyani ikkita motivatorga ajratadi: affiliasiyaga yo'nalganlik va rad etilishdan qo'rqish motivatorlari. Ular asosida insonlararo ta'sirlarning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi shakllanadi.

Affiliasiyani ijobiy hodisa sifatida tahlil qilsak, u "insonlarga intilish" sifatida namoyon bo'ladi; salbiy ko'rinishda esa "odamlardan qo'rqish" yoki "odamlar tomonidan) rad etilishdan qo'rqish" motivatsiyasi tarzida aks etadi. Ushbu motivatsiya mustaqil holatda ham, bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda ham mavjud bo'lishi mumkin.

Insonlarda har ikkala motivatsiyaning bir vaqtda mavjudligi murakkab, hal etilishi qiyin bo'lgan ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.^[4]

Muloqotga bo'lgan ehtiyoj doirasida affiliasiyani G. Myurrey talqinida X. Xekxaufen o'rgangan bo'lib, uning izohlashicha, affiliasiya doimiy, shu bilan birga fundamental xarakterga ega hodisadir. Affiliasiya psixik hodisa, xohish, motiv va mayl sifatida boshqa odamlarga intilish jarayonida namoyon bo'ladi.

Uning asosida muloqotni amalga oshiruvchi shaxsning hissiy va ishonchli aloqalarga nisbatan ichki ehtiyoji yotadi. Har ikkala tomonda qoniqish hosil qilish maqsadidagi yaqin munosabatlarni o'rnatishga intilish muloqot jarayonida birgalikdagi harakatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ehtiyojdan kelib chiqadigan maqsadlar turlicha bo'lishi, hatto bir-birini inkor etuvchi (masalan, yaqin munosabatlarni tashkil etish yoki suhbatdoshdan o'z shaxsiy maqsadini amalga oshirishda foydalanish) holatlarda ham yuzaga kelishi mumkin.^[4]

Inson o'zaro ta'sir o'tkazish imkoniyatidan mahrum etilganda, unda boshqa insonlarga nisbatan affilativ ehtiyojning zo'riqish holati yuzaga keladi. T. Shipli va J. Berroff tasavvur jarayoniga affilativ faollikning ta'sirini o'rganish orqali ushbu farazning to'g'riligini isbotlaganlar.

Michigan universiteti talabalari o'rtasida o'tkazilgan tajribalarda ham keltirilgan dalillar tasdiqlangan. Insonlar boshqa inson bilan ijobiy hissiy aloqalar o'rnatish, uni qo'llab-quvvatlash yoki qayta tiklash bilan bog'liq obrazlarni affilativ siymolar sifatida qabul qilganlar. Affiliasiyaga bo'lgan ehtiyoj ko'rsatkichi neytral sharoitda kategoriyalarni aks ettirish miqdori bilan belgilanadi. X. Rozenfeld va S. Franklinlar ushbu omil erkaklar guruhi vakillariga xos bo'lgani kabi, ayollar guruhi uchun ham xos ekanligini o'z izohlarida asoslab berganlar.

J. Atkinson va E. Uokerlarning tadqiqotlarida affilativ harakat qilishga moyillik kuzatilgan insonlarda affilativ ehtiyoj darajasi yuqori bo'lgan. Ilg'ab olish qiyin bo'lgan obyektlar namoyish etilganda, yuqori darajadagi affilativ ehtiyojga ega insonlar ushbu obyektlarni aniqroq ilg'ay olganlar. Aynan shunday shaxslarda affiliasiya yoki inson yuzi stimullariga bog'liq ko'rish omilining sezgirligi yuqoriroq ekanligi aniqlangan.^[7]

Tadqiqotlardagi mavjud ma'lumotlarga ko'ra, ijtimoiy munosabatlarni oson o'zlashtira oladigan shaxslarda affilativ ehtiyoj yuqori darajada bo'lib, ularda boshqalarga nisbatan sezgirlik va muloqotga moyillik kuchli namoyon bo'ladi. Shuningdek, ular boshqa odamlar bilan munosabatlarini qo'llab-quvvatlashga intilishlari haqidagi taxminlar ham mavjud. Ilmiy izlanishlar tahlili ushbu taxminlarni tasdiqlaydi.

J. Lensing va R. Xeynslarning izohiga ko'ra, affiliasiya darajasi past bo'lgan shaxslarga nisbatan affiliasiyaga yuqori ehtiyoji mavjud bo'lgan shaxslar ko'proq xat yozadi, do'stlarinikiga tez-tez mehmonga boradi hamda ko'proq telefon orqali muloqot qiladi. Affilativ motivatsiyani baholash metodikasi natijalari ham bu insonlar o'zlari ko'proq telefon qo'ng'iroqlari qilishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, affilativ ehtiyoji yuqori bo'lgan yuqori sinf o'quvchilari ko'plab klublarga a'zo bo'lishi aniqlangan, biroq bu holat voyaga yetganlarda kuzatilmaydi. Buning sababi shundaki, kattalar o'z maxsus qiziqishlariga mos ravishda muayyan jamoat tashkilotlarida birlashadilar va bu yerda undovchi kuch ijtimoiy xarakterga ega bo'lmaydi.

Odamlar bilan muloqot qilish affilativ ehtiyoji yuqori bo'lgan insonlar uchun nihoyatda muhimdir. Ular ish jarayonida hamkor yoki hamkasb sifatida mutaxassis-ekspertni emas, balki ishonchli do'stni afzal ko'radilar.

Keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarda birgalikda harakat qilish, hamkorlik va o'zaro ishonch kabi munosabatlarni rivojlantirish uchun ularda affilativ motivatsiyani shakllantirish zarurdir. Talabalar dars jarayonida doimiy ravishda birgalikda faoliyat olib bormasliklari esa ular o'rtasida munosabat birligi to'laqonli shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Ahamiyatli jihati shundaki, agar ta'lim jarayonida talabalarda affilativ motivatsiya izchil rivojlantirib borilsa, bu orqali ularning o'z xohishiga ko'ra erkin va muntazam ravishda o'z ustida ishlashiga, sog'lom (sof) raqobat muhitini yaratishga hamda muloqot madaniyatini rivojlantirishga erishish mumkin. Chunki bo'lajak har bir pedagogda muloqot madaniyati shakllangan va o'z tinglovchisiga ta'sir etish salohiyati mavjud bo'lishi zarur.



Ko'plab olimlar affiliativ motivatsiyaga ta'rif berar ekanlar, uni bilishga intilish va muloqotga intilish kabi motivlar majmuasi sifatida talqin etganlar. ^[6] Shunga ko'ra, affiliativ motivatsiya nafaqat yagona motiv, balki uning komponentlari sifatida bir nechta motivlar yig'indisidan tashkil topadi. Shu bois biz "affiliatsiya motivatsiyasi" emas, balki "affiliativ motivatsiya" sifatida e'tirof etish va o'rganishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Affiliatsiya (aloqa, muloqot) - insonlar bir-biri bilan muloqot o'rnatishi natijasida har ikki tomonning ham o'zaro qoniqish hosil qilishi, muloqot jarayonini mazmunli tashkil etishga va unda faol ishtirok etishga undovchi psixologik ta'sirlar komponenti sifatida tushuniladi.

Mazkur motivlar yig'indisi faqat boshqa insonlar bilan o'zaro munosabat doirasida namoyon bo'ladi va amalga oshadi. ^[6] Muloqotga bo'lgan ehtiyoj insonning jamoatchilik va hamkorlikka intilish kabi fundamental sifatleri asosiga quriladi.

Demak, affiliativ motivatsiya majmuasi birlashish ehtiyoji, muloqotga va bilimlar doirasini kengaytirishga intilish, o'z-o'zini namoyon qilishga intilish, hamkorlik, sheriklik va munosabatlarga bo'lgan xohish kabi maqsadlar, ehtiyojlar hamda motivlar komponentlaridan iborat ekanligini tadqiqot natijalarimiz isbotladi.

Affiliatsiyaga intiluvchi inson ko'plab vazifalarni bajarishi lozim. Avvalo, munosabatga kirishish ishtiyoqi mavjud bo'lishi, buning uchun esa sherigiga nisbatan jozibadorroq ko'rinishga intilishi zarur. Bundan tashqari, o'zini teng sherik sifatida namoyon eta olishi, ya'ni u nafaqat "affiliatsiyaga intiluvchi", balki birgalikda munosabat o'rnatuvchi insonning ham muayyan ehtiyojlarini qondiruvchi affiliativ hamkor sifatida maydonga chiqishi lozim.

Rollarni taqsimlashdagi nomuvofiqlik yoki o'z ehtiyojlarini (masalan, yordam berish va yordam olishdagi erkinlik yoki bog'liqlik, ustunlik yoki kuchlilik hamda aksincha holatlar) amalga oshirish vositasi sifatida hamkorlikdan foydalanish affiliativ jarayonga jiddiy zarar yetkazishi, hatto uni izdan chiqarishi mumkin.

Affiliatsiyaga doimiy intiluvchi inson o'zi va hamkorining emotsional holatlari uyg'unligiga erishishi, bu esa har ikkala tomon uchun yoqimli bo'lib, ularni hamkorlikdagi faoliyatga doimiy ravishda undashi hamda o'z qadrini his etish (o'zini-o'zi qadrlash) holatini ta'minlashi zarur. Ko'pincha talabalarda ushbu holatlar yaqqol namoyon bo'ladi.

Affiliativ motivatsiya darajasini aniqlashda shaxsiy tafovutlar va ularni yuzaga keltiruvchi omillarni inobatga olish zarur. Aks holda, muvaffaqiyatsiz, ya'ni samara bermaydigan affiliatsiya kuzatilishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu bois individ affiliativ motivatsiyasining ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishi affiliatsiyaga - ya'ni qabul qilinishga intilish (QI) yoki rad etilishdan qo'rqish (RQ) holatlarida namoyon bo'ladi. ^{[4]7}

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, yuqorida keltirilgan tahlillar shuni isbotlaydiki, affiliatsiya ijobiy emotsiyalar bilan doimiy o'zaro ta'sirda bo'luvchi insonlar o'rtasidagi muloqot asosida quriladi, degan xulosaga kelindi.

Keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

1. Affiliativ motivatsiyani rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda qulay sharoit yaratish, ya'ni erkin muloqot qilish imkonini ta'minlash;
2. Talabalarning birgalikda harakat qilishi va yagona maqsadni amalga oshirishi uchun o'quv faoliyati jarayonida ularni kichik guruhlarda ishlashini tashkil etish;
3. Birgalikda faoliyat yuritayotgan talabalarga o'zaro muloqotda moslasha olish, ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish hamda xarakter xususiyatlarini inobatga olgan holda munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishni o'rgatish;
4. Guruhda tenglik tamoyilini ta'minlash va vazifalarni adolatli hamda teng taqsimlash.

Xulosa qilib aytganda, nazariy jihatdan o'rganilgan turli ilmiy tadqiqotlarda talabalarni murakkab topshiriqlarni bajarishga undovchi asosiy kuch muvaffaqiyatga erishish emas, balki ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ekanligi ta'kidlanadi.

Affiliatsiyaga ehtiyoji yuqori bo'lgan shaxslar ijtimoiy munosabatlarni oson o'zlashtirishi, odamlar bilan muloqotga moyil va ularga nisbatan sezgir bo'lishi aniqlangan.

Muloqot faqat insonga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlari bilan muloqot qilish ehtiyoji yuzaga keladi. O'zaro muloqot esa tabiiy ravishda insoniyat jamiyatining vujudga kelishi va rivojlalishining eng asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

6 Немов П.С., Алтунина И.П. Социальная психология / Учебное пособие.- СПб.: Питер, 2010.-432 с, б, 90
7 Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. Б 2-х т.- М.: Наука, 1986.-Т.2.-569-580 с, б 290-291

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. Т.:“Ўзбекистон”2017 йил, -489б.
2. Шапарь.В.Б. Новейший психологический словарь/ В.Б.Шапарь, В.Э.Россоха, О.В. Шапарь; под общ.ред. О.В. Шапаря. –Изд.3-е-Ростов нД.: Феникс, 2007.-806 с., б, 43
3. Шагалова Е.Х. Словарь новейший иностранных слов (конец XX начало ХХИ бб): боле 3000 слов и словосочетаний. – М.: АСТ: Астрельб 2010.-943 с.
4. Хекхуазен Х. Мотивация и деятельности. Б 2-х т.- М.: Наука,1986.-Т.2.-569-580 с, б 289-291
5. Немов Р.С. Психология / Учебник. Москва: Высшее образование, 2005, -639 с. б. 496-497
6. Немов Р.С., Алтунина И.Р. Социальная психология / Учебное пособие.- СПб.: Питер,2010.-432 с, б, 90-93
7. Хьюстон М. Введение в социальную психологию. Европейский подход /М. Хьюстон, В.Штрёбе; Пер. С англ. Под ред.проф. Т.Ю. Базарова; [пер.с.англ. Г.Ю. Любимова]. – М.: Юните-дана, 2004, -622 с, б 386-387
8. Кузнецова И.Б. Мотив аффилиация в межличностных отношениях: Дис. ... канд.псих.наук. –СПб.: СПГУ. 2006.-200с

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.